

KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AYRIM DOLZARB MASALALARI

Ro'zmetov Shavkat

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali korxonalarning innovatsion faoliyatini yanada samarali tashkil etish imkoniyatlari tahlil qilingan. Innovatsiyalarni joriy etishda boshqaruvning shaffofligi, strategik rejalashtirish va manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlik aloqalari muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Shuningdek, innovatsion siyosatni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni yaratish, mas'uliyatli boshqaruv tamoyillarini joriy etish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'zaro bog'liqliklar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: korporativ boshqaruv, innovatsion faoliyat, strategik rejalashtirish, samaradorlik, manfaatdor tomonlar, innovatsion muhit.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются вопросы повышения эффективности инновационной деятельности предприятий за счёт совершенствования системы корпоративного управления. Подчёркивается значимость прозрачности управления, стратегического планирования и эффективного взаимодействия с заинтересованными сторонами при внедрении инноваций. Также проанализированы механизмы поддержки инновационной политики, внедрение принципов ответственного управления и обеспечение экономической устойчивости.

Ключевые слова: корпоративное управление, инновационная деятельность, стратегическое планирование, эффективность, заинтересованные стороны, инновационная среда.

ABSTRACT

This article analyzes the issues of enhancing the effectiveness of innovation activities in enterprises through the improvement of corporate governance systems. The importance of management transparency, strategic planning, and effective cooperation with stakeholders in the implementation of innovations is emphasized. The article also explores mechanisms supporting innovation policy, the introduction of responsible governance principles, and their interrelation with economic stability.

Keywords: corporate governance, innovation activity, strategic planning, efficiency, stakeholders, innovation environment.

KIRISH

Raqobatbardoshlik tushunchasi — oʻzgaruvchan global va mahalliy bozor sharoitlari, isteʼmolchilarning dinamik ehtiyojlari hamda texnologik taraqqiyot fonida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda[1]. Soʻnggi yillarda ushbu atamaning mazmunini kengaytirishga qaratilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar chuqurlashdi. Olimlarning yondashuvlarini tahlil qilish asosida, raqobatbardoshlikni tashkilotning oʻz resurslari va noyob ustunliklariga asoslangan holda bozorning oʻzgaruvchan talablariga moslasha olish qobiliyati sifatida talqin etish mumkin boʻldi. Bu, oʻz navbatida, har bir biznes boʻlinmasi darajasida shakllanadigan strategik yondashuvni talab etadi.

Korxonaning raqobatbardoshlik darajasini aniqlash uchun xalqaro miqyosda tan olingan bir qator metodikalar mavjud. Ular orasida strukturaviy (matritsali), mahsulot raqobatbardoshligini tahlil etuvchi (marketing va kvalimetriya), samarali raqobat nazariyasiga asoslangan ekspert tahlil usullari hamda kompleks (integratsiyalashgan koʻrsatkichlarga asoslangan) yondashuvlar mavjud. Har bir metodning oʻziga xos afzalliklari bilan bir qatorda, kamchiliklari ham mavjud boʻlib, ularning umumlashtirilgan tahlili, ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlari uchun katta ahamiyatga ega[2].

Aksiyadorlik jamiyatlari raqobatbardoshligini taʼminlashning samarali yoʻllaridan biri sifatida, muallif tomonidan qoʻshimcha aksiyalarni emissiya qilish orqali moliyalashtirish mexanizmi taklif etiladi. Jumladan, kompaniya tomonidan emissiya qilinadigan aksiyalar narxini belgilashda, ularni dastlabki maksimal qiymatini shakllantirish boʻyicha amalga oshirilgan xarajatlar ham inobatga olinishi zarur. Bunday yondashuv, AJga ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, ilgʻor texnologiyalarni joriy etish, xalqaro bozorga chiqish va strategik oʻsish kabi maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini beradi.

Shu oʻrinda taʼkidlash lozimki, qoʻshimcha aksiyalarni joylashtirish orqali moliyalashtirish bozor konʼyunkturasini chuqur oʻrganish va puxta rejalashtirishni talab etadi. Zero, bu jarayon kompaniya uchun moliyaviy barqarorlikni mustahkamlovchi va raqobat ustunligini taʼminlovchi muhim omil hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv masalalarini tahlil qilish, eng avvalo, ushbu tashkilotlarning iqtisodiy tizimdagi oʻrnini aniqlash hamda korporativ boshqaruvga oid ilmiy-nazariy asoslarni chuqur oʻrganishni talab etadi. Chunki bunday jamiyatlar nafaqat iqtisodiyotning strategik

yo'nalishlarida faoliyat yuritadi, balki ularning samaradorligi bevosita fuqarolarning hayot sifati va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik bilan chambarchas bog'liqdir.

Davlat ulushi saqlanib qolgan aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishda asosiy mezon sifatida ijtimoiy manfaatlar, ya'ni keng jamoatchilik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan yondashuv qo'llanilishi lozim. Shu bois, so'nggi yillarda bunday jamiyatlarning faoliyat samaradorligini oshirish, ularni zamonaviy boshqaruv standartlari asosida isloh qilish masalalari milliy darajada ham, xalqaro tajriba nuqtayi nazaridan ham alohida e'tibor markazida turibdi.

Xususan, davlat ulushi mavjud bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali ularning iqtisodiy salohiyatini kuchaytirish, resurslardan samarali foydalanish, strategik qarorlar qabul qilishda shaffoflik va javobgarlikni ta'minlash kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa ularning umumiy raqobatbardoshlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda jamiyatning boshqa tarmoqlarida ham modernizatsiya va innovatsiyalarga zamin yaratadi.

Davlat mulkchilik siyosatiga ko'ra, strategik ahamiyatga ega bo'lgan ayrim tarmoqlarda davlat o'z ishtirokini saqlab qolmoqda. Xususan, elektroenergetika, infratuzilma va bank tizimida davlat ulushi saqlanib qolgan korxonalar asosiy o'rinni egallaydi. Masalan, O'zbekistonda "Milliy elektr tarmoqlari", "Hududiy elektr tarmoqlari", "Issiqlik elektr stansiyalari" va "O'zbekgidroenergo" kabi energetika sohasidagi yirik korxonalarda 100 foizlik davlat egaligi saqlanib qolgan. Bu holat boshqa mamlakatlar tajribasiga ham mos keladi: Rossiyada "RusGidro" (60,49%), "FSK Yedinaya energeticheskaya sistema" (81%), "Rosseti" (88%) va "Energeticheskiye sistemy Vostoka" (84%) kabi kompaniyalarda ham davlat asosiy ulush egasi hisoblanadi. Shuningdek, Polshada ENERGA (51,52%) va ENEA (51,50%), Turkiyada esa Elektrik Üretim A.Ş, TEİAŞ va TETAS korxonalari to'liq davlat tasarrufidadir[4].

TAHLIL

Benchmarking tahlil metodikasi asosida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida ayrim O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarining samaradorlik darajasi ularning xorijiy analoglariga nisbatan past ekanligi aniqlangan. Masalan, "O'zbekiston temir yo'llari" AJda bir xodimga to'g'ri keluvchi sof tushum 5,1 ming AQSh dollarini tashkil etsa, Rossiyaning "RJD" AJda bu ko'rsatkich 26,3 ming dollar, Xitoyning "China Railway Group" AJda esa 207,4 ming dollarni tashkil etadi. Bu esa, moliyaviy samaradorlik va operatsion unumdorlik bo'yicha sezilarli farq mavjudligini ko'rsatadi.

Shu bois muallif ta'kidlaydiki, davlat egaligidagi mulklar bilan bog'liq tamoyillarni aniq belgilash va bu boradagi ma'lumotlarni jamoatchilikka ochiqlik

tamoyili asosida yetkazish zarur. Bu amaliyot davlat aktivlarini samarali boshqarish, ularning faoliyatini baholash va ijtimoiy nazoratni kuchaytirish nuqtayi nazaridan ijobiy natijalar beradi. Davlat egaligida qoladigan korxonalarni oldindan belgilab olish, ularni samarali boshqarish hamda moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha tizimli choralar ko'rish lozim.

Korporativ boshqaruvni kuchaytirish masalasida esa, Kuzatuv kengashi a'zolarining salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajribalarga murojaat qilsak, Avstriya, Finlyandiya, Gretsiya, Polsha va Buyuk Britaniyada kuzatuv kengashiga a'zolikka nomzodlar oldindan belgilangan malaka mezonlari asosida tanlab olinadi. O'zbekistonda esa bu jarayon hali ham to'liq ochiq tanlov asosida emas, balki vazirlik va idoralarning amaldagi xodimlari orasidan tanlanib, tegishli idoralar bilan kelishilgan holda shakllanmoqda. Bu esa, boshqaruv tizimining shaffofligini ta'minlash borasida yanada takomillashtirishni talab etadi.

Jahon banki tomonidan e'lon qilingan tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda davlat ulushi mavjud bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida axborotlarni oshkoralik asosida e'lon qilishga doir talablar xalqaro standartlarga qisman mos tarzda joriy etilgan. Biroq ushbu jarayonni yanada kuchaytirish, hisobdorlik va javobgarlikni oshirish orqali korxonalarining investitsion jozibadorligini ta'minlash va ularning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mavjud holatni baholash maqsadida O'zbekistonda davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlaridagi korporativ boshqaruv tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy va me'yoriy hujjatlar chuqur o'rganildi. Shu bilan birga, bu jamiyatlarning moliyaviy ko'rsatkichlari hamda ularning korporativ boshqaruv holati o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Tahlil davomida korporativ boshqaruvning moliyaviy natijalarga qanday ta'sir ko'rsatayotgani yuzasidan ham aniq dalillarga asoslangan natijalar olindi.

Tadqiqot jarayonida davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyatini tartibga soluvchi 41 ta normativ-huquqiy hujjat hamda 2 ta asosiy me'yoriy hujjat – "Korporativ boshqaruv kodeksi" va "Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari" – atroflicha tahlil qilindi. Ushbu hujjatlar asosida davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlariga 34 ta majburiy talab belgilangani aniqlanib, bu ko'rsatkich xususiy aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan 16 taga ko'pligi bilan ajralib turadi[5].

Bundan tashqari, mazkur talablarni bajarganlik uchun yillik o'rtacha xarajat hajmi 716,2 million so'mni tashkil etayotgani ham aniqlangan. Bu esa davlat ishtirokidagi jamiyatlar zimmasiga moliyaviy yuklamaning yuqoriligi va me'yoriy talablarning ortiqchiligini ko'rsatadi.

NATIJA

Tadqiqot davomida davlat va xususiy aksiyadorlik jamiyatlari uchun belgilangan talablar qiyosiy tahlil qilindi. Natijada, ayrim me'yoriy talablarning takroriy yoki samarasiz ekani aniqlanib, ularni bekor qilish yoki soddalashtirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqildi. Bunday yondashuv, korporativ boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish, tartibga solish xarajatlarini kamaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Xalqaro miqyosda korporativ boshqaruv tizimlari tobora integratsiyalashib bormoqda. Shu sababli dunyo mamlakatlarida korporativ tuzilmalar va ularni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarda muayyan darajadagi konvergensiya — ya'ni bir-biriga yaqinlashish jarayoni kuzatilmoqda. Ayni vaqtda global amaliyotda korporativ boshqaruvning uchta asosiy modeli keng tarqalgan: ingliz-amerika (anglo-sakson) modeli, german modeli va yapon modeli. Bu tizimlar o'zaro sezilarli farqlarga ega bo'lib, ular korporativ boshqaruvning ichki mexanizmlarida o'z ifodasini topadi.

1. Anglo-sakson (ingliz-amerika) modeli

Angliya va AQShda shakllangan ushbu model, korporatsiyalar ustidan aksiyadorlar tomonidan nazorat qilish tamoyiliga asoslanadi. Ushbu yondashuvda kompaniya faoliyatiga bevosita aloqador bo'lmagan mustaqil shaxslar yoki investorlar kompaniya faoliyatiga baho berish va qaror qabul qilishda ishtirok etadi. Mazkur modelda kompaniya boshqaruvi ko'p hollarda unitar direktorlar kengashi orqali amalga oshiriladi, ya'ni yagona kengash ham ijro etuvchi, ham nazorat qiluvchi funksiyalarni bajaradi.

AQSh korporatsiyalarida aksiyadorlik kapitali odatda mayda ulushlarga bo'lingan bo'lib, ayrim yirik institutsional investorlar — nafaqa fondlari, investitsiya va o'zaro jamg'arma fondlari asosiy aksiyalarni boshqaradi. Bu esa, aksiyadorlarning bitta yirik guruhi tomonidan kengash ustidan mutlaq nazorat o'rnatilmasligini ta'minlaydi. Oxirgi o'n yilliklarda esa, mustaqil direktorlarning soni ortib, ijrochi direktorlar soni kamaygan. Bu kompaniya ustidan mustaqil va muvozanatli nazoratni ta'minlash maqsadida amalga oshirilmoqda.

2. German modeli (ikki bosqichli boshqaruv tizimi)

Germaniyada korporativ boshqaruv ikki pog'onali tuzilma asosida amalga oshiriladi. Bu tizimda boshqaruv kengashi (Vorstand) va kuzatuv kengashi (Aufsichtsrat) o'rtasida funksional ajratish mavjud. Kuzatuv kengashi strategik qarorlar qabul qiladi, boshqaruv kengashi esa korxonaning kundalik faoliyatini yuritadi. Bu modelda mehnatkashlar vakillari ham kuzatuv kengashiga kiritilishi orqali ijtimoiy hamkorlik mexanizmi ta'minlanadi[6].

Shuningdek, kontinental yevropa huquqiy tizimida korporatsiya faqat aksiyadorlik jamiyati bilan cheklanmaydi. Unda turli shirkatlar (masalan, kommandit yoki to'liq shirkatlar), mas'uliyati cheklangan jamiyatlar (MChJlar), xo'jalik birlashmalari (xoldinglar, kontsernlar), hamda kooperativlar ham korporativ tuzilma sifatida faoliyat yuritadi.

3. Yapon modeli (korporativ guruhlar tizimi)

XULOSA

Yaponiyada korporativ boshqaruv tizimi mamlakatning an'anaviy biznes madaniyati bilan uyg'unlashgan holda rivojlangan. Unda korxona ichidagi munosabatlar ko'proq uzoq muddatli ishonch, hamkorlik va o'zaro yondashuvlarga asoslanadi. Bu modelda qonunchilik va rasmiy tartibga solish ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi; asosiy urg'u — shaxsiy mas'uliyat, korporativ madaniyat va kelishuvlarga qaratiladi. Shu sababli, kompaniyalar o'zaro o'zining boshqaruv mexanizmlarini ichki qadriyatlarga mos ravishda shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Korporativ moliya strategiyasi: Darslik/ S.Elmirzayev, H.Ahmedov // Toshkent/ "Iqtisod-Moliya" 2019 yil, 192-bet.
2. Гулямов С.С.. Развитие законодательство об акционерных общес- твах в системе корпоративных отношений и проблемы его совершен- ствования: Автореф. дис. на соискание степени доктора юридических наук. - Т.: ТГЮИ, 2005. -43 с
3. M.Bonham and others. Generally accepted Accounting practice under IFRS. Ernst & Young LLP, United States, 2010.- part 1.
4. p.102-104
5. Алешин А.В., Аньшин В.М. и др. Управление проектами: фундаментальный курс. – М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2013. – 500 с
6. Бегматова Д.Б. Акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарувнинг самарадорлигини баҳолаш усуллари тақомиллаштириш. и.ф.фал.док (PhD) илмий дар. олиш учун тайёрланган дисс.автореферати. – Т., 2017.
7. Хамдамов О.Н. Корхоналарда молиявий менежмент тизимини тақомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати – Т.: БМА, 2017.